

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

O'quv uslubiy boshqarma
tomonidan ro'yxatga olindi

№ 1400-9
2014 yil 20 iyun

Rektorning -sonli
buyrug'i bilan
TASDIQLANGAN
(2014 yil 21 iyun)



HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

ISHCHI O'QUV DASTURI

Oliy ta'limning

Bilim sohasi:	100 000 – Ta'lim; 200 000 –Gumanitar soha.
Ta'lim sohalari:	110 000 –Pedagogika; 230 000 – Iqtisod.
Ta'lim yo'nalishlari:	Institutda tayyorlanayotgan barcha ta'lim yo'nalishdagi talabalar uchun.

Toshkent-2014


Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: Tojiyev M.X. - TMI "Mintaqaviy iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti

Taqrizchilar: Nigmatov I. – TDTU, "Hayot faoliyati xavfsizligi" dotsenti.
(Tashqi)
Abdalova Z. – TMI "Mintaqaviy iqtisodiyot" kafedrasida mudiri,
dotsent (Ichki).

Fanning ishchi o'quv dasturi kafedraning 2014 yil 17-iyundagi 20-sonli yig'ilishi muhokamasidan o'tkazilgan va fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri



dots. Z. Abdalova

Fanning ishchi o'quv dasturi Moliya-iqtisod fakulteti Kengashida muhokamadan o'tkazilgan va tavsiya etilgan (2014 yil 20-iyundagi 10-sonli qarori).

Fakultet dekani



dots. A.Xayriddinov

Kelishildi:
O'quv ishlari bo'yicha
prorektor



prof. A. Karimov

KIRISH

1.1. Fanning maqsadi va vazifalari

“Hayot faoliyati xavfsizligi” fanining maqsadi – bo’lajak mutaxassislarga hayotiy faoliyatlarida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, hususiyatlarini, oqibatlarini va ularni yo’qotish uslublarini xavfsiz ish sharoitlarini yaratish tabiiy texnogen va ekologik tUSDagi favqulotda vaziyatlarda aholini himoya qilish, ularni nazariy va amaliy jihatdan himoyalashga, hamda jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko’rsatish qoidalarini o’rgatishdan iborat.

“Hayot faoliyati xavfsizligi” fanining vazifasi- inson hayotiy faoliyatida yuzaga keladigan xavflarni o’rganish ularni identifikatsiyalash, ishlab chiqarishda muqobil muhitni yaratish, texnosferada kasb kasalliklarini kamaytiradigan va baxtsiz hodisalarni oldini oluvchi tadbirlarni ko’rish shuningdek, tabiiy ofat, avariya va halokatlardan himoyalash usullariga o’rgatish, shikastlangan o’choqlarda aholini qutqarish va tiklov ishlarini o’tkazish, yong’inga qarshi xavfsizlik choralarini ko’rish, jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko’rsatish va boshqa muhim vazifalarni bajara oladigan bilim, ko’nikma va kasbiy malakaga ega insonni tarbiyalashga qaratilgan.

Har bir mavzu yakunida axborot va pedagogik texnologiyalar keltirilgan hamda ularni qo’llash natijasidan aniq tavsiyalar mazkur fandan ishlab chiqilgan o’quv – uslubiy majmua (O’UM)da bayon etilgan.

1.2. Fanni o'zlashtirgan talabning malakaviy darajasi:

- ishlab chiqarish tarmoqlarida xavfsiz ish sharoitlarini tashkil etish haqidagi;
- zararsiz ish sharoitlarini ta’minlovchi umumiy va shaxsiy himoya vositalari haqidagi;
- favqulotda vaziyatlarda insonlar va moddiy boyliklarni qutqarish va himoyalash uslublari va vositalari haqidagi;
- shikastlangan hududlarda qutqaruv va tiklov ishlarini tashkil etish haqidagi;
- yong’in chiqish sabablari, ularni so’ndiruvchi vositalar hususidagi tasavvur va malakaga ega bo’ladi.

1.3. Fanning o'quv rejasidagi fanlar bilan bog'liqligi

Mazkur fanni o'rganish uchun bakalavr - iqtisodchi davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan tabiatshunoslik asoslari tabiiy va iqtisodiy geografiya asoslari, ishlab chiqarish texnologiyalari asoslari, ekologiya asoslari va boshqa fanlari bilan bevosita aloqadorlikda bo'ladi.

1.4. Fanni o'qitishda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar va ularning mazmun-mohiyati

“Hayot faoliyati xavfsizligi” fanining ma’ruza mashg’ulotlarida ko’rgazmalarni taqdim etish usullari va vositalari; Jumladan o’quv vizual materiallari, multimediyalarni namoyish etish, qiziqarli o’yin variantlarini tuzish

va ularni bajarish, hamda internet tizimidan olingan yangi ma'lumotlardan foydalaniladi.

“Hayot faoliyati xavfsizligi” fanining amaliy mashg'ulotlarida muammolarni jamoali tarzda hal etish usullari va vositalari:

Aqliy hujum:

Bu usulda qo'yilgan savol, muammo, masalalarni butun guruh bilan birgalikda muhokama qilinadi. U talabalarni o'quv jarayonida mashg'ulotlarga faol qatnashishlari va bayon qilishlari chog'ida boshqalarni ham jalb qilish, o'z fikrlarini aytishga yo'naltiruvchi metoddir.

Bahs:

O'z fikrini ifoda etishni xoxlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

Muzokaralar:

Munozarali muammolarni tashkil etgan ikki tomon fikrlar almashuvi orqali eshitish.

“Panorama trening:

Bu uslubda qo'yilgan savol, muammoni kichik guruhlarga bo'lingan holda, mavzuning mazmun mohiyatini tushunib olishda bildiradigan fikrlarning to'g'risini tashlash, tanlab olingan fikrlarni umumlashtirish asosida o'rganilayotgan mavzu yuzasidan aniq tushunchalar hosil qilishga qaratilgan.

Talabalarga ushbu fanni o'zlashtirishda mavjud o'quv adabiyotlaridan, darslik, testlar majmuasi va boshqa manbalardan foydalanish tavsiya etiladi.

5230800- Soliq va soliqqa tortish yo'nalishida "Hayot faoliyati xavfsizligi" fanidan o'tladigan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulotturlariga ajratilgan soatlar hajmining taqsimoti.

№	Mavzular nomi	Jami soat	shu jumladan		
			ma'ruza	amaliy mashg'ulot	mustaqil ta'lim
1.	Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash asoslari	8	2	2	4
2.	Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy va tashkiliy asoslari	8	2	2	4
3.	Ishlab chiqarish jarayonlari sanitariyasi va gigiyenasi	8	2	2	4
4.	Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi	8	2	2	4
5.	Kuzatiladigan tabiiy ofatlar va ularning oqibatlari	8	2	2	4
6.	Terrorizm va aholi muhofazasi	6	2	2	2
7.	Fuqarolarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish usullari va vositalari, ularning hususiyatlari. Favqulodda holatlarda qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarni tashkil etish	8	2	2	4
8.	Yong'in xavfsizligi	8	2	2	2
9.	Birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish asoslari	2	-	-	-
10	1-Oraliq nazorat 2- Oraliq nazorat 3- yakuniy nazorat				
Jami		70	18	18	34

5111000 – Kasb ta’limi (5230600 – Moliya); 5111000- Kasb ta’limi (5230700-Bank ishi); 5111000-Kasb ta’limi (5230900-Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo’yicha)); 5230600-Moliya; 5230700-Bank ishi; 5230900-Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo’yicha); 5231200-Sug’urta ishi; 5231300-Pensiya ishi 5231500 Baholash ishi yo’nalishlarida “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanidan o’tiladigan mavzular va ular bo’yicha mashg’ulot turlariga ajratilgan soatlar hajmining taqsimoti

№	Mavzular nomi	Jami soat	shu jumladan		
			ma’ruza	amaliy mashg’ulot	mustaqil ta’lim
1.	Hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlash asoslari	8	2	2	4
2.	Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy va tashkiliy asoslari	8	2	2	4
3.	Ishlab chiqarish jarayonlari sanitariyasi va gigiyenasi	8	2	2	4
4.	Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi	8	2	2	4
5.	Kuzatiladigan tabiiy ofatlar va ularning oqibatlarini	8	2	2	4
6.	Terrorizm va aholi muhofazasi	6	2	2	2
7.	Fuqarolarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish usullari va vositalari, ularning xususiyatlari. Favqulodda holatlarda qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarni tashkil etish	8	2	2	4
8.	Yong’in xavfsizligi	8	2	2	4
9.	Birlamchi tibbiy yordam ko’rsatish asoslari	8	2	2	4
10	1-Oraliq nazorat 2- Oraliq nazorat 3- yakuniy nazorat				
Jami		70	18	18	34

2. O'QUV MATERIALLARI MAZMUNI

2.1. MA'RUZA MASHG'ULOTLARI

2.1.1. Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash asoslari (2 soat)

“Hayot faoliyati xavfsizligi” haqida tushuncha, uning o'qitilishining obyektiv zaruriyati. Faoliyat va xavfsizlik tushunchalari, mazmuni. “Inson-muhit” tizimida inson omili. “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanining asosiy tushunchalari, ularning mazmuni, faoliyat xavfsizligini ta'minlash uslublari. “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanining tarkibiy qismlari va ularning tekshirish obyektlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *ma'ruza, multimediya, o'quv-vizual materiallari.*

[A1, A2, A3, A6, A7, A8, A9, A16, Q2, Q3, Q4, Q5, Q7, Q8, Q9, Q13, Q1]

2.1.2. Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy va tashkiliy asoslari (2 soat)

Hayot faoliyati xavfsizligini huquqiy asoslari va mazmuni. Faoliyat xavfsizligini nazorat qilish tizimi, ishlab chiqarish qoida va talablarni buzganda tortiladigan javobgarliklar. Ishlovchilarni faoliyat xavfsizligi talablariga amal qilishga o'qitish tizimi. Ishlab chiqarishda faoliyat jarayonida yuzaga keladigan jarohatlanishlar va kasb kasalliklari, ularning kelib chiqish sabablari, oldini olish tadbirlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *ma'ruza, multimediya, o'quv-vizual materiallari.*

[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A16, Q1, Q2, Q3, Q4, Q5, Q6, Q12, Q13]

2.1.3. Ishlab chiqarish jarayonlari sanitariyasi va gigiyenasi (2 soat)

Inson mehnat faoliyatiga ta'sir etuvchi salbiy omillar, ularning turlari, hususiyatlari, ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat mazmuni. Ishlab chiqarishga ob-havo muhitining ta'siri “issiqlash” vs “sovuqlash” holatlari Ishlab chiqarish mikroiklimining gigiyenik me'yorlari ularning inson organizmiga ta'siri. Texnosfera havosi tarkibidagi ishlab chiqarish changlari va zaharli moddalarning inson organizmiga salbiy ta'siri va ularga qarshi chora tadbirlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *ma'ruza, multimediya, o'quv-vizual materiallari.*

[A1, A2, A6, A7, A8, A13, A16, Q1, Q4, Q6, Q11, Q12 Q13]

2.1.4. Favqulotda vaziyatlarda fuqoro muhofazasi (2 soat)

Favqulotda vaziyatlar, ularning turlari va xususiyatlari. Fuqaro muhofazasining asosiy vazifalari, ularning kuch va vositalari. Fuqorolarning fuqoro muhofazasi sohasidagi huquq va majburiyatlari. O'zbekistonda favqulotda vaziyatlar vazirligini tashkil etish va Favqulotda vaziyatlarda ularni oldini olish va harakat qilish davlat tizimlari to'g'risidagi me'yoriy- huquqiy xujjatlarini mohiyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *ma'ruza, multimediya, o'quv-vizual materiallari.*

[A1, A2, A4, A5, A6, A7, A10, A1 Q11, Q12, Q16 Q1, Q2, Q7, Q8, Q10, Q12, Q13, Q14]

2.1.5. Kuzatiladigan tabiiy ofatlar va ularning oqibatlari (2 soat)

Markaziy Osiyo hududlarida kuzatiladigan tabiiy ofatlarning turlari, kelib chiqish sabablari, xususiyatlari, ularni oldindan ko'rsatadigan belgilari, shikastlash darajalari. Har bir katastrofik o'choqda olib boriladigan tadbirlar kompleksi: Toshkent, Gazli zilzilalari, "Jigariston", "Atchi" (O'zbekiston), "Sharofa" (Tojikiston) va Qirg'izistondagi yer ko'chkilari, Qamchiq dovonidagi qor ko'chkilari Shohimardonsoydagi (O'zbekiston), Olma-ota "Medeo" (Qozog'iston) sel ofatlari, hamda Orol dengizi va unga tutash hududlardagi qurg'oqchilik ofatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *ma'ruza, multimediya, o'quv-vizual materiallari.*

[A1, A4, A5, A6, A7, A11, A12, A16, Q7, Q8,]

2.1.6. Terrorizm va aholi muhofazasi (2 soat)

Terrorizm tushunchasi, uning salbiy illatlari va amalga oshirish uslublari. Terrorizmning iqtisodiyot tarmoqlari va aholi uchun xavfli xususiyatlari. Xalqaro terrorizm va unga qarshi olib boriladigan harakatlar O'zbekiston Respublikasining 31 avgust 2000 yildagi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi" qonunining mohiyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *ma'ruza, multimediya, o'quv-vizual materiallari.*

[A1, A16, Q1, Q14]

2.1.7. Fuqarolarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish usullari va vositalari, ularning hususiyatlari. Favqulodda holatlarda qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarni tashkil etish (2 soat)

Fuqarolarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish uslublari, mohiyati va vositalari, ularning hususiyatlari. Shikastlanish o'choqlarida qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarning tashkiliy asoslari va ularni olib borish usullari Tabiiy ofatlar va avariya oqibatlarini bartaraf etishda qutqaruv va shoshilinch ishlarni tashkil etish va o'tkazish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *ma'ruza, multimediya, o'quv-vizual materiallari.*

[A4, A5, A6, A14, A16, Q7, Q8]

2.1.8. Yong'in xavfsizligi (2 soat)

Yong'in ofati, uning kelib chiqish sabablari, omillari, turlari, yonish fazalari va ularning xususiyatlari.

Iqtisodiyot ob'ektlari va qurilish materiallarining yong'inga bardoshlik darajalari. Yong'inni so'ndiruvchi vositalar, turlari, xususiyatlari va ularga qo'yiladigan talablar. Yong'inni o'chiruvchi jihozlar. Portlash xodisasi, uning xususiyatlari, unga qarshi chora-tadbirlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *ma'ruza, multimediya, o'quv-vizual materiallari.*

[A1, A2, A4, A5, A6, A16, Q10,]

2.1.9. Birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish asoslari (2 soat)

Talofat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalari. Yurak-o'pka reanimatsiyasi, jarohatlar, belgilari va uni bog'lash usullari. Tomirlardan qon ketish turlari v uni bog'lash usullari. To'qimalar kuyganda, odam zaharlanganda ko'rsatiladigan yordam. Yuqumli kasalliklar turlari, xususiyati va ularga qarshi chora tadbirlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *ma'ruza, multimediya, o'quv-vizual materiallari*

[A4, A16, Q12, Q13]

2.2. AMALIY MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMALAR

2.2.1. Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash asoslari (2 soat)

“Hayot faoliyati xavfsizligi” fanini asosiy tushunchalari: taksanomiya, nomenklatura, kvantifikatsiya, identifikatsiyasi, ularning mazmuni. Xavflarning tasnifi, xavflar ta'sirida yuzaga keladigan zararlar va salbiy oqibatlari. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini ta'minlash uslublari va ularning mohiyati. “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanini tarkibiy tuzilishi va ularni tekshirish obyektlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar*

[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A8, A9, A16 Q1, Q2, Q3, Q4, Q5, Q8, Q9, Q13, Q14]

2.2.2. Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy va tashkiliy asoslari (2 soat)

Faoliyat xavfsizligini ta'minlovchi huquqiy asoslar: “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida”gi, “Mehnat kodeksi” qonunchiligining mohiyati. Mehnatni muhofaza qilishda nazorat o'tkazilishini tashkil etilishi. Mehnat muhofazasiga oid qoida va me'yorlarni buzganlik uchun javobgarlik. Mehnatni muhofazasining tashkiliy asoslari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar*

[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A16, , Q1, Q2, Q3, Q4, Q5, Q6, Q12, Q13]

2.2.3. Ishlab chiqarish jarayonlari sanitariyasi va gigiyenasi (2 soat)

Inson mehnat faoliyatining turlari, ularga ta'sir etuvchi omillar va olib keluvchi oqibatlari. Ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigiyenasi me'yorlari, ularning mehnat faoliyatiga ta'siri. Texnosfera havo muhitining ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish changlari va zaharli moddalarni inson organizmiga salbiy ta'siri, ularga qarshi chora tadbirlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar*

[A1, A2, A6, A7, A8, A9, A13, A16, Q4, Q11, Q12, Q13]

2.2.4. Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi (2 soat)

Favqulodda vaziyatlarning turlari. Tabiiy va texnogen xususiyatli falokatlar, ularning xususiyatlari va talofatlari. Fuqaro muhofazasining maqsadi, vazifalari va xalq xo'jaligi tarmoqlaridagi tashkiliy strukturasi. "O'zbekiston Respublikasi 2009 yildagi "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi qonuni mohiyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar, Panorama trening*

[A1, A2, A4, A5, A6, A7, A10, A11, A16, Q1, Q2, Q7, Q8, Q10, Q12, Q13, Q14]

2.2.5. Kuzatiladigan tabiiy ofatlar va ularning oqibatlari (2 soat)

Markaziy Osiyo hududlari uchun xarakterli bo'lgan tabiiy ofatlar: yer silkinishi qor ko'chkilari, suv toshqini, sel ofatlari, shamol va qurg'oqchilik ofatlarining talofat darajalari. Har bir tabiiy ofatda fuqorolarining xatti-harakatlari, ularga qarshi qo'llaniladigan chora – tadbirlar. Epidemiya, epizootiya va epifitotiya. Yer silkinishi oqibatida yuzaga keladigan shikastlanish o'choqlarida institut fuqorolar muhofazasi tizimlarining xatti - harakatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar, Panorama trening*

Adabiyotlar: [A1, A4, A5, A7, A11, A12, A16, Q7, Q8,]

2.2.6. Terrorizm va aholi muhofazasi (2 soat)

Terrorizmning turlari, oldiga qo'ygan maqsadlari, amalga oshirish yo'llari. Terrorizmning iqtisodiyot tarmoqlari va aholi uchun xavfli illatlari. Terroristik guruhlariga qarshi O'zbekiston Respublikasida yaratilgan huquqiy bazasi asoslari va jahon miqyosidagi ishtiroki. O'zbekiston Respublikasining 31 avgust 2000 yildagi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonunining mohiyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar*

[A1, A16, Q1, Q14, Q19, Q20]

2.2.7. Fuqarolarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish usullari va vositalari, ularning hususiyatlari. Favqulodda holatlarda qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarni tashkil etish (2 soat)

Fuqarolarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish uslublari. Ogohlantirish, himoya inshootlarida saqlash, evakutsiya omili, radiatsiyaga va kimyoviy ta'sirlarga qarshi omillar, shaxsiy saqlovchi vositalar yordamida saqlash va ularga qo'yiladigan talablar. Shaxsiy saqlovchi vositalar, turlari, tuzilishi, markalari va saqlash darajalari. Shikastlanish o'choqlarida qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarning tashkiliy asoslari va ularni olib boorish uslublari.

Tabiiy ofatlar va avariya oqibatlarini bartaraf etishda qutqaruv va shoshilinch ishlarni tashkil etish va o'tkazish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar, Panorama trening*

[A4, A5, A6, A14, A17, Q7, Q8,]

2.2.8. Yong'in xavfsizligi (2 soat)

Yong'in jarayoni, uning kelib chiqish sabablari va omillari. Yong'in turlari, xususiyati va fazalari. Ishlab chiqarish binolarining va qurilish materiallarining yong'in xavfiga qarab guruxlanishi. Yong'inlarni so'ndiruvchi vositalar, ularning turlari, xususiyatlari, ishlatish darajalari va ularga qo'yiladigan talablar. Portlash xavfi, xususiyati, uning salbiy oqibatlarini. Yong'in va portlash bo'lgan obyektlarda qutqaruv va birlamchi tiklov ishlarini (QBTI) tashkil etish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar*
[A1, A2, A4, A5, A6, A16, Q10,]

2.2.9. Birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish asoslari (2 soat)

Shikastlanganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalari*. Jaroxat turlari, belgilari va ularga bog'lamlar qo'yish qoidalari*. Yurak-o'pka reanimatsiyasi *. Tomirlardan qon ketishini to'xtatish uslublari*. Suyak singanda, kuyushda ko'rsatiladigan tibbiy yordam.

Badanni sovuq olganda, oftob urganda, odam suvga cho'kkanda, turli zaharlovchi moddalar bilan zaharlanganda hamda yuqumli kasalliklar tarqalganda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam muolajalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar*
[A4, A16, Q12, Q13, Q19, Q20]

3.1. MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda "Hayot faoliyati xavfsizligi" fanini barcha bo'limlarini xususiyatlarini, shuningdek har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim mavzularni o'quv adabiyotlar yordamida mustaqil o'zlashtirish
- berilgan mavzular bo'yicha referatlar yozish
- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish
- chizma hisoblash ishlarini bajarish
- amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish
- qiziqarli o'yin variantlarini ishlash
- ilmiy maqola va ilmiy anjumanlarga ilmiy tezislarni tayyorlash
- ayni paytda talaba "Hayot faoliyati xavfsizligi" fanining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarni tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin.

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni

№	Ishchi dasturning mustaqil ta'lim mazmuni	Mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzular	Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarilish muddatlari
1	Mehnat muhofazasining tashkiliy asoslari	Ishlab chiqarish muqobil muhitini ta'minlash	Konspekt qilish va kollakvium topshiriladi	Amaliy mashg'ulot darsigacha
2	Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari		Konspekt qilish va kollakvium topshiriladi	=/=
3	Ishlab chiqarishda qo'llaniladigan zaharlovchi moddalarning inson organizmiga ta'siri va ulardan himoyalani	Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar vaularning oqibatlar	Konspekt qilish va kollakvium topshiriladi	=/=
4	Texnosferadagi zararli omillar, hususiyatlari va ularni yo'qotish uslublari	Ishlab chiqarishda muqobil mehnat xavfsizligini ta'minlash psixologiyasi	Konspekt qilish va kollakvium topshiriladi	=/=
5	O'zbekiston Respublikasining 2000 yildagi "Fuqoro muhofazasi" to'g'risidagi qonuni	O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Axborotnomasi	Qonun mohiyati konspekt qilinadi	=/=
6	Shikastlanish o'choqlarini aniqlash va baholash	HFX dan amaliy mashg'ulotlar uchun mashq va masalalar to'plami	Alohida variantdagi masala varianti ishlab topshiriladi	=/=
7	Biologik va kimyoviy shikastlanish o'choqlarida (QBTI) tashkil etish tadbirlari		Alohida variantdagi masala varianti ishlab topshiriladi	=/=
8	Iqtisodiyot tarmoqlarining barqarorligini oshirish	Xalq xo'jaligi tarmoqlarining barqarorligini ta'minlash asoslari	Konspekt qilish va kollakvium topshiriladi	=/=

9	O'zbekiston Respublikasining 31 avgust 2000yildagi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi" qonuni	O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Axborotnomasi	Qonun mohiyati konspekt qilinadi	=/=
10	Badanni sovuq olganda, oftob urganda, odam suvga cho'kkanda, turli zaharlovchi moddalar bilan zaharlanganda hamda yuqumli kasalliklar tarqalganda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam muolajalari	Birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish asoslari	Konspekt qilib o'rganiladi	=/=
11	Yong'in va portlash bo'lgan ob'ektlarda qutqaruv va tiklov ishlarini (QBTI) tashkil etish	Favqulodda holatlarda QVTI tashkil etish	Konspekt qilish va topshirish	=/=

** mazkur ballar JN, ON va YaN tarkibiga kiritilgan.*

3.2. KURS ISHLARI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR (rejalashtirilmagan)

4. REYTING BAHOLASH TIZIMI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 11 iyundagi 204-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-son buyrug'i bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 26 avgust 1981-1-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom"da ko'rsatilganidek, talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholash quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy nazorat (JN);
- oraliq nazorat (ON);
- yakuniy nazorat (YaN).

"Hayot faoliyati xavfsizligi" fani bo'yicha talabaning semester davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- joriy nazorat - 35 ball;
- oraliq nazorat - 35 ball;
- yakuniy nazorat- 30 ball.

"Hayot faoliyati xavfsizligi" fani bo'yicha talabalar bilimlarini Reyting tizimi asosida baholash mezonlari

	Ko'rsatkichlar	JN ballari	ON ballari	YN ballari
1.	Ma'ruza konspekti va ma'ruzada o'tilgan mavzularni o'zlashtirganlik darajasi		0-9	
2.	Seminar darslariga tayyorgarligi, adabiyotlardan konspekt olishi, so'zga chiqishi, vasifalarni bilishi va bayon etish saviyasi	0-9		
3.	Mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, ularning mazmunini o'zlashtirish darajasi	0-16	0-10	
4.	Ilmiy to'garakda ma'ruza (referat) bilan chiqishi		0-8	
5.	Oraliq nazorat test variantlarini ishlash	0-10		
6.	Qiziqarli o'yin variantini bajarish		0-8	
7.	Yakuniy nazorat test sinovlarini ishlash			30
	JAMI	0-35	0-35	0-30

4.1. Reyting nazorat jadvali

Reyting nazorati turlari	Semestr haftalari																				Attestasiya	Ballar	Saralash ballari
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	20					
JN	0-5			0-6			0-6			0-6			0-6			0-6				0-35	39		
ON	0-17									0-18										0-35			
Σ (JN+ON)	0-70																						0-70
YAN																					0-30	0-30	0
Jami	0-70																				0-30	0-100	55

Izoh: Semestr haftalari soni ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning o'quv rejasi va o'quv jarayoni grafigiga muvofiq belgilanadi va farqlanishi mumkin (18-19 haftalar qishki ta'til davri hisoblanadi).

Mazkur fan bo'yicha navbatdagi semestrda reyting nazorati jadvali*

Reyting nazorati turlari	Semestr haftalari																				Attestasiya	Ballar	Saralash ballari
	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	37	38	39	40					
JN	0-5			0-6			0-6			0-6			0-6			0-5				0-35	39		
ON	0-17									0-18										0-35			
Σ (JN+ON)	0-70																						0-70
YAN																					0-30	0-30	0
Jami	0-70																				0-30	0-100	55

Izoh: Semestr haftalari soni ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning o'quv rejasi va o'quv jarayoni grafigiga muvofiq belgilanadi va farqlanishi mumkin.

4.2. JN bo'yicha baholash mezonlari

JNda amaliy mashg'ulotlar o'zlashtirilishi bo'yicha yuqoridagi jadvalda keltirilgan semestr haftalari kesimida har bir mashg'ulotda talabaning o'zlashtirishiga mos ravishda mezon asosida 0-2 (yoki har hafta bo'yicha 0-6) ballgacha jami 0-35 ballgacha jamlanishi belgilangan. J.N bo'yicha 0-25 (0-6) ballik tizimdagi mezonlar semestr boshida talabalar e'tiboriga yetkaziladai.

4.3. ON bo'yicha baholash mezonlari

ON ma'ruza mashg'ulotlari materiallari asosida bir semestr davomida 2 marta o'tkaziladi. ON bo'yicha talaba jami 0-35 (har birida 0-17 /0-18) ballgacha jamlashi mumkin.

Fanning o'qitilgan mavzulari bo'yicha o'zlashtirish nazorati turli shakllarda o'tkazilishi mumkin. Mazkur fandan ON Mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish shaklida o'tkazilganda, topshiriqlar soni va ularga mos ravishdaagi mezonlar va talabalar e'tiboriga yetkaziladi.test sinovi shaklida o'tkazilganda testlar soni va ularga mos ravishdagi mezon 0-17 /0-18 ball kesimida kafedra tomonidan alohida belgilanadi.

4.4. \sum (JN+ON) bo'yicha reyting ballarini umumlashtirish mezonlari

\sum (JN+ON) 0-70 gacha bo'lgan reyting ballari quyidagi mezonlarga muvofiq umumlashtirilishi belgilangan:

Baholash mezonlari	Reyting ballari		\sum (JN+ON)
	ON	JN	
“Hayot faoliyati xavfsizligi” fani mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda “Hayot faoliyati xavfsizligi” fani bo'yicha xulosa va qaror qabul qila oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega .	30-35	30-35	60-70
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha to'la bilimga ega. Mashg'ulotlarda “Hayot faoliyati xavfsizligi” fani bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	25-29	25-29	50-69
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha koniqarli bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda “Hayot faoliyati xavfsizligi” fani bo'yicha mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega .	26-33	13-16	39-49
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha koniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda “Hayot faoliyati xavfsizligi” fani yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi.	0-19	0-19	0-38

4.5. YaN ni baholash mezonlari

Talabalar “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanidan “Yakuniy nazoratni” test usulida topshiradilar va ularning o’zlashtirish ko’rsatkichi 0-30 ballgacha baholanadi.

Bunda “Test” topshiriqlari ko’p variantli bo’lib, har bir variant 30 ta test topshiriqlaridan tashkil topgan.

Talabaga test savollarining javobunu belgilash uchun 30 daqiqa berilib har bir test topshirig’iga to’g’ri javob uchun 1 ball bilan baholanadi.

4.6

Talabalarning fanni o’zlashtirish ko’rsatkichlarini aniqlash mezonlari

Talabaning fan bo’yicha bilim saviyasi ko’nikma va malakalarini nazorat qilish 0-100 ballik reyting tizimi asosida quydagi mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Talabaning fanni o’zlashtirishini nazorat qilish mezonlari	Ballar
Hayot faoliyati xavfsizligi fani mashg’alotlari jami mavzulari bo’yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg’ulotlarda fan bo’yicha xulosa va qaror qabul qila oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo’llay oladi, mohiyatini, tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	86-100
Fanning jami mavzulari bo’yicha to’la bilimga ega. Mashg’ulotlarda barcha mavzular bo’yicha mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo’llay oladi, mohiyatini ta qo’llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.71-85	
Fanning barcha mavzular bo’yicha qoniqarlibilimga ega. Amaliy mashg’ulotda fanga bog’liq masalalar bo’yicha mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurgv ega.	55-70
Fanning jami mavzulari bo’yicha qoniqarsiz bilimga ega. Fan bilan bog’liq masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi.	0-54

5. DASTURNING INFORMATSION – KOMMUNIKATSION VA USLUBIY TA’MINOTI

Ta’limning zamonaviy, xususiyatlari, pedagogik va infarmatsion – komunikatsiyasi (multimediya, tarqatma materiallar, slaydlar, taqdimot, elektron-didaktik) texnologiyalari majmual tarzda qo’llanilishi nazarda tutilgan. Talabalar “Hayot faoliyati xavfsizligi”fanini o’rganishda axborot vositalaridan ya’ni internet tizimidagi ma’lumotlardan ham keng foydalanadi.

SHuningdek talabalarga O'zbekiston Respublikasining fuqaro muhofazasi va hayot faoliyati xavfsizligiga oid qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

5.1. ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Yormatov G.E va boshqalar. "Hayot faoliyati xavfsizligi" o'quv qo'llanma.-T., 2005 y.
2. Yormatov G'.Yo. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. – T.: "Aloqachi", 2009. – 348 b.
3. Yo'ldoshev O'. va boshqalar. Mehnatni muhofaza qilish. –T.: "Mehnat", 2005.
4. Nigmatov I., Tojiyev M.X. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2011. -260 b
5. Tojiev M., Nig'matov I. Hayot faoliyati xavfsizligi // O'quv qo'llanma.-T., "Tafakkur bo'stoni", 2012.-272 b.
6. G'oyipov N.E. Hayot faoliyati xavfsizligi. – T.: "Yangi asr avlodi", 2007. - 264 b
7. Qudratov A. va boshqalar. Hayotiy faoliyat xavfsizligi. Ma'ruza kursi. – T.: "Aloqachi", 2005.
8. Bezopasnost' jiznedeyatel'nosti // Pod red. Mixaylova L.A. – Kiev-Xar'kov-Minsk, 2007. – 301s.
9. Mikryukov V.Yu. Bezopasnost' jiznedeyatel'nosti. Uch. posobie. – Rostov-Don, 2006.
10. Norxo'jaev A.Q., Yunusov M.Yu. Favqulodda vaziyatlar va muhofaza tadbirlari. –T.: "Universitet", 2001.
11. Tojiev M.X., Nigmatov I. va boshqalar. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. O'quv Qo'llanma. – T.: MCHJ, Ta'lim manbai, 2002. – 224 b.
12. Yunusov M.Yu., Ikromov E.J. Fuqaro muhofazasi – doimiy zaruriyat. –T., 2002.
13. Belov S.V. i dr. Bezopasnost' jiznedeyatel'nosti. – M.: "Vysshaya shkola", 1999.
14. Yunusov R. Rukovodstvo po ohrane truda. – T., 2004.
15. Rasuleva M.A., Yuldoshev O.R. Videoterminalardagi xavfsizlik muammolari. – T., 2004.

5.2. Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2008.
2. "Mehnat Kodeksi". O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami. – T., 2005, 37-38 son.
3. "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – T., 2002, 1- son.
4. "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida"gi Nizom. Vazirlar Mahkamasining qarori. №286, 06.06.1997. – T., 1997.

5. “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug’urtasi to’g’risida”gi qonun. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. – T., 2008, 37-38 son.
6. “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish to’g’risida”gi qonun. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. – T., 2009, 16- son.
7. “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to’g’risida”gi qonun. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – T., 1999, 9- son.
8. “Fuqaro muhofazasi to’g’risida”gi qonun. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – T., 2000, 5-6 son.
9. “Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi to’g’risida”gi qonun. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. – T., 2006, 39-son.
10. “Yong’in xavfsizligi to’g’risida”gi qonun. O’zbekiston Respublikasi qonuni. – T., 2009.
11. “CHiqindilar to’g’risida”gi qonun. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. – T., 2007, 50-51 son.
12. “Sanitariya nazorati to’g’risida”gi qonun. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. – T., 2006, 41-son.
13. “Fuqarolar sog’lig’ini saqlash to’g’risida”gi qonun. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. – T., 2007, 40-son.
14. “Terrorizmga qarshi kurash to’g’risida”gi qonun. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. – T., 2004, 25-son.

Internet saytlari

- | | | |
|------|---|---|
| 1. | www.bilim.uz | OO’MTV sayti |
| 2. | www.ziyo.edu.uz | OO’MTV sayti |
| 3. | www.ziyo.net.uz | OO’MTV sayti |
| 4. | www.mintrud.uz | Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti |
| 5. | www.minzdrav.uz | Sog’liqni saqlash vazirligi sayti |
| 6. | www.mchs.gov.uz | Favqulodda vaziyatlar vazirligi sayti |
| 7. | www.uznature.uz | Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo’mitasi sayti |
| 8. | www.standart.uz | Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi sayti |
| 9. | www.sanoatktn.uz | Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Sanoatkontexnazorat) sayti |
| 10. | www.lex.uz | O’zbekiston Respublikasining milliy qonunchilik bazasi sayti |
| 11.. | http://www.hsea.ru | Oxrana truda. Promыshlennaya i pojarnaya bezopasnostь. Preduprejdenie chrezvыchaynyx situatsiy |
| 12.. | http://www.znakcom-plect.ru | Oxrana truda i texnika bezopasnosti |
| 13.. | www.oхранatruda.ru | Oxrana truda, texnika bezopasnosti i pojarnoy bezopasnosti |

